# MIKROFIRMA VA KICHIK TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI DAVLAT RO’YXATIDAN O’TKAZISH UCHUN ZARUR BO’LGAN HUJJATLAR RO’YXATI

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktyabrdagi «O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish tizimini takomillashtirish to’g’risida» 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Nizomning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomning 12-bandiga asosan Tizim vositasida davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun tegishlicha so’rovnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

davlat tilidagi ta’sis hujjatlari;

topshirish dalolatnomasi - qo’shib yuborilganda;

taqsimlash balansi - bo’lishda va ajratib chiqarishda.

Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari bo’yicha, shu jumladan taraflar bahslashayotgan majburiyatlar bo’yicha, huquqiy vorislik to’g’risidagi qoidalarni o’z ichiga olgan bo’lishi kerak - qayta tashkil etish yo’li bilan tuzilayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun.

Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, unda yangidan paydo bo’lgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o’z kreditorlari oldidagi majburiyatlari bo’yicha solidar javobgar bo’ladilar.

Ariza beruvchi ta’sis hujjatlarini o’z ixtiyoriga ko’ra qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda namunaviy shakllar asosida yoki boshqa shakllarda rasmiylashtirish huquqiga ega.

So’rovnomaga ilova qilinayotgan hujjatlar elektron hujjat shaklida bo’lishi kerak.

Ro’yxatdan o’tkazuvchi organga so’rovnomani qog’ozda rasmiylashtirilgan hujjatlarning «PDF» (portable document format) formatida skaner qilingan nusxalari shaklida ilova qilgan holda jo’natishga yo’l qo’yiladi.

Davlat ro’yxatidan o’tkazish (qayta ro’yxatdan o’tkazish) uchun yuborilgan so’rovnomalar:

ikki va undan ortiq muassislari bo’lgan tadbirkorlik sub’ektlari - yuridik shaxslarda muassisning so’rovnomada ko’rsatilgan elektron pochta manziliga Tizim tomonidan yuborilgan xabarnoma va uning muassisligini Yagona identifikatsiyalash tizimi orqali identifikatsiyalashni tasdiqlash yo’li bilan har bir muassisning muassislar tarkibiga kiritilganligiga roziligi mavjud bo’lishi kerak, O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lmagan shaxslar bundan mustasno;

muassislari tarkibida O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lmagan shaxslar ko’rsatilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, chet el sarmoyasi

ishtirokidagi korxonalar, boshqa tadbirkorlik sub’ektlari - yuridik shaxslarda majburiy tartibda ko’rsatilgan shaxslarning elektron raqamli imzosi (keyingi o’rinlarda ERI deb ataladi) bilan imzolanadi.

Ro’yxatdan o’tkazuvchi organga yuborilayotgan har bir alohida hujjat barcha autentik belgilari haqiqiyligi saqlanishini ta’minlovchi (har bir dyuymga 200 nuqtadan kam bo’lmagan) alohida fayl ko’rinishida so’rovnomaga ilova qilinishi kerak. Har bir fayl o’lchami 10 Mbdan oshmasligi kerak.

Ariza beruvchi so’rovnoma shakllantirilishi oxiriga yetganidan so’ng stavkasi ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq Tizim tomonidan avtomatik tarzda aniqlanadigan davlat bojini Tizim tomonidan taklif etilayotgan quyidagi to’lov usullari orqali to’lashni amalga oshiradi:

Internet jahon axborot tarmog’i orqali real vaqt rejimida - bank kartasi va ulangan «SMS xabar berish» xizmati yordamida naqdsiz hisob-kitob ko’rinishida;

O’zbekiston Respublikasi banklarining kassalari orqali - Tizim tomonidan shakllantirilgan so’rovnomaning noyob raqami ko’rsatilgan holda naqd yoki naqdsiz hisob-kitob ko’rinishida;

hisob raqamidan bank o’tkazmasi yordamida naqdsiz hisob-kitob ko’rinishida.

To’langan davlat boji qaytarilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ortiqcha to’langan summalar bundan mustasno.

Davlat boji to’langan paytdan boshlab ushbu Nizomning 9-14-bandlari talablari inobatga olingan holda so’rovnoma Tizim foydalanuvchisiga - ro’yxatdan o’tkazuvchi organ mas’ul xodimining shaxsiy kabinetiga avtomatik tarzda xabarnoma yuboradigan Tizim tomonidan saqlanadi.

Tizim ushbu Nizomga 3-ilovada nazarda tutilgan davlat ro’yxatidan o’tkazish muddatlarida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshiradi va ular Tizimning tegishli ma’lumotlar bazalariga muvofiq bo’lganda:

Reestrga avtomatik tarzda tegishli yozuvlar kiritish yo’li bilan davlat ro’yxatidan o’tkazishni amalga oshiradi;

ushbu Nizomga 6, 6a, 6b-ilovalarga muvofiq tegishli shakllar bo’yicha ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomani shakllantiradi;

ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomani, ta’sis hujjatlarini elektron hujjatlar repozitoriysida saqlaydi;

elektron hujjatlar depozitoriysida davlat ro’yxatidan o’tkazishga, qayta ro’yxatdan o’tkazishga rad etishni shakllantiradi va saqlaydi.

Yuridik shaxslar uchun - ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomaga, ta’sis hujjatlariga havola (giperhavola) shaklidagi xabarnoma avtomatik tarzda Tizim foydalanuvchisining - ro’yxatdan o’tkazuvchi organ mas’ul xodimining ERIsi bilan imzolanadi va «tadbirkorlik sub’ektining shaxsiy kabineti»ga, shuningdek so’rovnomada ko’rsatilgan elektron pochta manziliga jo’natiladi.

Ariza beruvchi tomonidan tegishli elektron hujjatlar Yagona portaldagi «tadbirkorlik sub’ektining shaxsiy kabineti» orqali qabul qilib olingan payt ushbu bandda nazarda tutilgan elektron hujjatlar berilgan vaqt bo’lib hisoblanadi.

Ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomada, ta’sis hujjatlarida Tizim foydalanuvchisining - ro’yxatdan o’tkazuvchi organ mas’ul xodimining ERIsi va QR-kod (matritsali shtrix kod), shuningdek identifikatsiya raqamlari bo’lishi kerak.

QR-kod tegishli dasturiy-apparat vositalari bilan o’qilganda ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomaning, ta’sis hujjatlarining identifikatsiya raqamlari va Yagona portaldagi elektron hujjatlar repozitoriysiga havolalar (giperhavolalar) bo’lishi kerak.

Ariza beruvchi yuridik shaxslar uchun - Yagona portaldagi elektron hujjatlar repozitoriysida saqlanayotgan ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomani, ta’sis hujjatlarini erkin olish, shuningdek, ularning nusxalarini qog’ozda chop etish huquqiga ega.

Davlat ro’yxatidan o’tganidan so’ng tadbirkorlik sub’ekti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank hisob raqamlarini ochish uchun banklarga murojaat qiladi. Bank hisob raqamlarini ochish uchun ro’yxatdan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnomaning, ta’sis hujjatlarining asl nusxalarini va nusxalarini taqdim etish talab qilinmaydi.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlari davlat ro’yxatidan o’tkazilganda, shuningdek ular tomonidan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda muhr va shtamplar, shuningdek ularning eskizlarini tayyorlash talab qilinmaydi.

## Tadbirkorlik sub’ektini - yuridik shaxsni davlat ro’yxatidan o’tkazishga ARIZA

| | | |
|---|---|---|
| **I.** | **Umumiy ma’lumotlar** | |
| | Quyidagi sifatida davlat ro’yxatidan o’tkazishingizni so’rayman: | |
| 1-1. | ❑ | aktsiyadorlik jamiyati (qisqartirilgan abbreviatura - AJ); |
| 1-2. | ❑ | mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ); |
| 1-3. | ❑ | qo’shimcha mas’uliyatli jamiyat (QMJ); |
| 1-4. | ❑ | oilaviy korxona (OK) |
| 1-5. | ❑ | to’liq shirkat (TSh); |
| 1-6. | ❑ | kommandit shirkat (KSh); |
| 1-7. | ❑ | unitar korxona (UK); |
| 1-8. | ❑ | davlat unitar korxonasi (DUK); |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-9. | ❑ | xususiy korxona (XK); | | | | | | | | |
| 1-10. | ❑ | ishlab chiqarish kooperativi (IK); | | | | | | | | |
| 1-11. | ❑ | fermer xo'jaligi (FX); | | | | | | | | |
| 1-12. | ❑ | yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaligi (DX); | | | | | | | | |
| 1-13. | ❑ | yuridik shaxs huquqi bilan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona filiali; | | | | | | | | |
| 1-14. | ❑ | chet el kapitali ishtirokidagi korxona | | | | | | | | |
| | | 1-14-1. | quyidagi tashkiliy-huquqiy shakldagi: | | | | | | | |
| 1-15. | ❑ | tadbirkorlik sub'ektining - yuridik shaxsning boshqa shakli; | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | |
| 1-16. | Quyidagi yo'l bilan tuzilayotgan: | 1-16-1. | ❑ | ta'sis etish; | | | | | | |
| | | 1-16-2. | ❑ | quyidagi shaklda qayta tashkil etilayotgan: | | | | | | |
| | 1-16-2-1. | ❑ | qayta tuzish; | 1-16-2-2. | ❑ | ajratib chiqarish; | 1-16-2-3. | ❑ | bo'lish; | |
| | 1-16-2-4. | ❑ | qo'shib yuborish; | 1-16-2-5. | ❑ | birlashtirish; | | | | |
| | 1-16-2-6. | ❑ | bir vaqtning o'zida birlashtirish bilan bo'lish; | | | | | | | |
| | 1-16-2-7. | ❑ | bir vaqtning o'zida birlashtirish bilan ajratib chiqarish; | | | | | | | |
| | 1-16-2-8. | ❑ | bir vaqtning o'zida qo'shib yuborish bilan bo'lish; | | | | | | | |
| | 1-16-2-9. | ❑ | bir vaqtning o'zida qo'shib yuborish bilan ajratib chiqarish. | | | | | | | |
| 1-17. | Tashkil etilayotgan yuridik shaxsning mulkchilik shakli: | 1-17-1. | ❑ | xususiy; | 1-17-2. | ❑ | ommaviy (davlat). | | | |
| 1-18. | Yuridik shaxsni ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilgan organ: | | | | | | | | | |
| 1-18-1. | Qaror qabul qilingan sana: | 1-18-1-1. | Kun: | | 1-18-1-2. | Oy: | | 1-18-1-3. | Yil: | |
| *1-izoh:* | *1) mazkur bo'lim 1-1 dan 1-13 gacha bandlarda ko'rsatilgan tashkiliy-huquqiy shaklni belgilash yo'li bilan to'ldiriladi. Zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy shakl mavjud bo'lmaganida 1-15-band belgilanadi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tashkiliy-huquqiy shakl ko'rsatiladi;*<br>*2) 1-14-1-band ochiladigan menyudan tegishli tashkiliy-huquqiy shakl bandining raqamini (1-1 - 1-12) yoki chet davlat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shaklni belgilash yo'li bilan to'ldiriladi;*<br>*3) 1-16-band tegishli katakni belgilash yo'li bilan to'ldiriladi;*<br>*4) 1-7-band tegishli katakni belgilash yo'li bilan to'ldiriladi. Bunda 1-8-band belgilanganda 1-17-1-band tanlanishi mumkin emas;* | | | | | | | | | |

| | |
|---|---|
| | *5) tadbirkorlik sub'ekti - yuridik shaxs 1-4, 1-5, 1-6, 1-7, 1-9, 1-10, 1-11, 1-12 va 1-15-bandlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakl bilan ommaviy (davlat) mulkchilik shaklida tuzilishi mumkin emas;*<br>*6) 1-18-band ta'sis hujjatlari bilan ushbu harakatlarni amalga oshirishga vakolat berilgan tadbirkorlik sub'ekti organining, yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, tadbirkorlik sub'ektini - yuridik shaxsni ta'sis etish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan boshqa organ nomini ko'rsatish yo'li bilan to'ldiriladi.* |
| **II.** | **Yangidan tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektining - yuridik shaxsning firma nomi** |

***DIQQAT! TADBIRKORLIK SUB'EKTINING - YuRIDIK SHAXSNING FIRMA NOMINI TANLASHDA QUYIDAGILARNI INOBATGA OLISH ZARUR.***

***Firma nomida:***
*1) davlatning rasmiy nomi, xalqaro, hukumatlararo yoki nodavlat notijorat tashkilotining qisqartirilgan yoki to'liq nomi;*
*2) tarixiy yoki O'zbekiston Respublikasida mashhur bo'lgan shaxsning to'liq yoki qisqartirilgan ismi, belgilangan tartibda beriladigan ruxsatsiz;*
*3) firma nomining egasi, uning faoliyat turi yoki u kelib chiqqan mamlakat xususidagi soxta yoki iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan belgilar;*
*4) jamiyat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq tamoyillariga zid bo'lgan belgilar* ***ko'rsatilmasligi kerak.***

***Firma nomida:***
*ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa yuridik shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab buyurtmanoma berilgan, ilgariroq ustuvorlikka ega bo'lgan firma nomlari;*
*ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab buyurtmanoma berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);*
*belgilangan tartibda hammaga ma'lum deb e'tirof etilgan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);*
*belgilangan tartibda qonun hujjatlari bilan muhofaza qilinadigan tovarlar kelib chiqqan joylarning nomlari bilan, shunday nomdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazish hollari bundan mustasno,* ***adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshash bo'lgan belgilar ham ko'rsatilmasligi kerak.***
*1-bandda ko'rsatib o'tilgan belgilar, agar bunga tegishli davlat organining yoki tashkilotning ruxsati bo'lsa, firma nomiga kiritilishi mumkin.*
*(«Firma nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasi).*

*O'zga firma nomidan g'ayriqonuniy suratda foydalanayotgan shaxs firma nomiga egalik qilish huquqi bo'lgan shaxsning talabi bilan undan foydalanishni to'xtatishi hamda yetkazilgan zararlarni to'lashi lozim.*
*(O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 46-moddasi).*

| | | |
|---|---|---|
| 2-1. | ❑ | O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Firma nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yuridik shaxslarning nomlari va ramzlarida davlatning rasmiy nomidan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» 2014 yil 11 oktyabrdagi 286-son qarori bilan belgilangan, yuridik shaxslarning firma nomlarida belgilardan foydalanishga doir talablar bilan tanishman va ularga rioya etish majburiyatini o'z zimmamga olaman. |
| 2-2. | Yuridik shaxsning to'liq nomi: | |
| | | |
| 2-3. | Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi: | |
| | | |
| 2-4. | Yuridik shaxslar nomlari va ramzlarida davlatning rasmiy nomiga ko'rsatmalardan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatning nomi: | |
| | | |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2-4-1. | Hujjat raqami: | | | | | | | | | | | |
| 2-4-2. | Hujjat sanasi: | 2-4-2-1. | Kun: | | 2-4-2-2. | Oy: | | | | 2-4-2-3. | Yil: | |
| **III.** | **Muassislar to'g'risidagi ma'lumotlar** | | | | | | | | | | | |
| 3-1. | Muassislar soni: | | dona, shu jumladan: | | | | | | | | | |
| | 3-1-1. | yuridik shaxslar: | | dona; | 3-1-2. | Jismoniy shaxslar: | | dona. | | | | |
| 3-2. | Muassisning - yuridik shaxsning nomi: | | | | | | | | | | | |
| 3-3. | Muassis - yuridik shaxs Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): | | | | | | | | | | | |
| 3-4. | Muassis - jismoniy shaxs Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): | | | | | | | | | | | |
| 3-4-1. | Muassis familiyasi: | | | | | | | | | | | |
| 3-4-2. | Muassis ismi: | | | | | | | | | | | |
| 3-4-3. | Muassis otasining ismi: | | | | | | | | | | | |
| 3-4-4. | Tug'ilgan sanasi: | 3-4-4-1. | Kun: | 3-4-4-2. | Oy: | | 3-4-4-3. | Yil: | | | | |
| 3-4-5. | Jinsi: | 3-4-5-1. | ❑ | Erkak; | 3-4-5-2. | ❑ | Ayol. | | | | | |
| 3-4-6. | Pasport seriyasi: | | 3-4-7. | Pasport raqami: | | | | | | | | |
| 3-4-8. | Berilgan sanasi: | 3-4-8-1. | Kun: | | 3-4-8-2. | Oy: | | 3-4-8-3. | Yil: | | | |
| 3-4-9. | Pasport kim tomonidan berilgan: | | | | | | | | | | | |
| 3-5. | Ta'sischilar joylashgan joy: | | | | | | | | | | | |
| 3-5-1. | Ko'cha: | | 3-5-1-1. | Boshi berk ko'cha N: | | 3-5-1-2. | Tor ko'cha N: | | | | | |
| 3-5-2. | Uy N: | | 3-5-3. | Kvartira N: | | | | | | | | |
| 3-5-4. | SHahar: | | | | | | | | | | | |
| 3-5-5. | Posyolka: | | | | | | | | | | | |
| 3-5-6. | Qishloq (ovul): | | | | | | | | | | | |
| 3-5-7. | Tuman: | | | | | | | | | | | |

| | | |
|---|---|---|
| 3-5-8. | Viloyat: | |
| 3-5-9. | Respublika (mamlakat): | |
| 3-5-10. | Pochta indeksi: | |
| 3-5-11. | Elektron pochta manzili: | |
| 3-5-12. | Aloqa qilinadigan telefon (kodi bilan): | |
| *2-izoh:* | *1) 3-2, 3-3 va 3-4-bandlar barcha muassislar bo'yicha to'ldiriladi. Zarur bo'lganda muassislar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish uchun to'ldiriladigan maydonlar soni tegishli bandlarni qo'shish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin;*<br>*2) muassislar - yuridik shaxslar STIRi mavjud bo'lmaganida 3-5-1 dan 3-5-12 gacha bo'lgan bandlar, muassislar - jismoniy shaxslar STIRi mavjud bo'lmaganida 3-4-1 dan 3-5-12 gacha bo'lgan bandlar to'ldiriladi;*<br>*3) 3-5-1 dan 3-5-10 gacha bo'lgan bandlar ochiladigan menyudan tegishli ma'lumotlarni tanlash yo'li bilan to'ldiriladi. Bunda muassislar joylashgan joy O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan bo'lsa, mazkur bandlar mustaqil ravishda to'ldiriladi.* | |
| **IV.** | **Tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar** | |
| 4-1. | Bo'linayotgan, qayta tuzilayotgan yuridik shaxsning yoki tarkibidan yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxs ajralib chiqayotgan yuridik shaxsning, Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): | |
| 4-2. | ❑ | Ushbu bilan barcha kreditorlar yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganligi to'g'risida yozma xabardor qilinganligi tasdiqlanadi. |
| 4-3. | Qayta tashkil etish to'g'risidagi xabarga havola (giperhavola) quyidagilarda joylashtirilgan: | |
| 4-3-1. | Yagona portalda: | |
| 4-3-2. | Korporativ veb-saytda: | |
| 4-3-3. | Korporativ axborot yagona portalida: | |
| 4-4. | Qayta tashkil etish to'g'risidagi xabar raqami: | |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4-5. | E'lon qilingan sana: | 4-5-1. | Kun: | | 4-5-2. | Oy: | | 4-5-3. | Yil: | | |

| | | |
|---|---|---|
| *3-izoh:* | *1) qayta tashkil etish to'g'risidagi xabar Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga 10-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha e'lon qilinadi.*<br>*2) 4-3-2 va 4-3-3-bandlar aktsiyadorlik jamiyatlari qayta tashkil etilgan taqdirda to'ldiriladi, bunda 4-3-1-band to'ldirilmaydi.* | |
| **V.** | **Yangidan tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektining - yuridik shaxsning joylashgan joyi (pochta manzili)** | |
| 5-1. | Muassisning manzili bo'yicha: | ❑ |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5-2. | Yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxs joylashgan manzil bo’yicha muassisning STIRi: | | | | | | | |
| 5-3. | Boshqa manzil bo’yicha: | ❑ | | | | | | |
| 5-3-1. | Ko’cha: | | 5-3-1-1. | Boshi berk ko’cha N: | | 5-3-1-2. | Tor ko’cha N: | |
| 5-3-2. | Uy N: | | 5-3-3. | Kvartira N: | | | | |
| 5-3-4. | SHahar: | | | | | | | |
| 5-3-5. | Posyolka: | | | | | | | |
| 5-3-6. | Qishloq (ovul): | | | | | | | |
| 5-3-7. | Tuman: | | | | | | | |
| 5-3-8. | Viloyat: | | | | | | | |
| 5-3-9. | Respublika | | | | | | | |
| 5-3-10. | Pochta indeksi: | | | | | | | |
| 5-3-11. | Elektron pochta manzili: | | | | | | | |
| 5-3-12. | Internet tarmog’idagi veb-sayt: | | | | | | | |
| *4-izoh:* | *1) 5-1 va 5-3-bandlar tegishli kataklardan birini belgilash yo’li bilan to’ldiriladi. 5-3-bandni tanlanganda muassisning manzilidan farq qiluvchi joylashgan joyni ko’rsatgan holda 5-3-1 dan 5-3-12 gacha bo’lgan bandlar qo’shimcha ravishda to’ldiriladi;*<br>*2) 5-3-1 dan 5-3-10 gacha bo’lgan bandlar ochiladigan menyudan tegishli ma’lumotlarni tanlash yo’li bilan to’ldiriladi;*<br>*3) 5-3-11 dan 5-3-12 gacha bo’lgan bandlar tegishli elektron pochta manzili va veb-sayt mavjud bo’lganda to’ldiriladi.* | | | | | | | |
| **VI.** | **Tadbirkorlik faoliyatining turi** | | | | | | | |
| 6-1. | Asosiy faoliyat turi: | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| 6-2. | Qo’shimcha faoliyat turi: | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| **VII.** | **Taxmin qilinayotgan ro’yxatdagi xodimlar soni** | | | | | | | |
| 7-1. | Taxmin qilinayotgan xodimlar soni: | | kishi. | | | | | |
| *5-izoh:* | *7-1-bandda shuningdek o’rindoshlik asosida, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo’yicha ishga qabul qilinishi rejalashtirilayotgan xodimlar soni ko’rsatiladi.* | | | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | *Oilaviy tadbirkorlik tashkil etilganda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni (2 kishidan kam bo'lmagan) ko'rsatiladi.* | | | | |
| **VIII.** | **Ustav fondi to'g'risidagi ma'lumotlar** | | | | |
| 8-1. | Ustav fondining miqdori: | 8-1-1. | ❑ | so'mda: | |
| | | 8-1-2. | ❑ | AQSH dollarida: | |
| | | 8-1-3. | ❑ | evroda: | |
| 8-2. | Muassislarning ustav fondidagi ulushi: | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 8-2-1. | Muassisning nomi: | Ustav fondiga badal: | | | Ulush %da |
| | | ❑ | so'mda: | | |
| | | ❑ | AQSH dollarida: | | |
| | | ❑ | evroda: | | |
| 8-2-2. | Muassisning nomi: | Ustav fondiga badal: | | | Ulush %da |
| | | ❑ | so'mda: | | |
| | | ❑ | AQSH dollarida: | | |
| | | ❑ | evroda: | | |
| 8-3. | Aktsiyalar soni, nominal qiymati va turi to'g'risidagi ma'lumotlar - aktsiyadorlik jamiyatlari uchun: | | | | |
| 8-3-1. | oddiy aktsiyalar soni: | | | | dona |
| 8-3-2. | oddiy aktsiyalarning nominal qiymati: | | | | |
| | | ❑ | so'mda: | | |
| | | ❑ | AQSH dollarida: | | |
| | | ❑ | evroda: | | |
| 8-3-3. | imtiyozli aktsiyalar soni: | | | | dona |
| 8-3-4. | imtiyozli aktsiyalarning nominal qiymati: | | | | |
| | | ❑ | so'mda: | | |
| | | ❑ | AQSH dollarida: | | |
| | | ❑ | evroda: | | |
| *6-izoh:* | *1) 8-1-band yuridik shaxslarning tegishli tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha ustav fondining eng kam miqdoriga doir talablarga muvofiq ustav fondi miqdorini (Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga 11-ilova) ko'rsatish va tegishli katakni belgilash yo'li bilan to'ldiriladi.*<br>*Zarur bo'lganda muassislar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish uchun to'ldiriladigan maydonlar soni 3-1-bandga muvofiq tegishli bandlar qo'shish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.* | | | | |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **IX.** | **Ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati** | | | | | | | | | | | |
| 9-1. | Ta'sis hujjatlari: | 9-1-1. | ❑ | ustav; | 9-1-2. | ❑ | ta'sis shartnomasi; | | | | | |
| 9-2. | ❑ | Topshirish dalolatnomasi - qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etilganda. | | | | | | | | | | |
| 9-3. | ❑ | Taqsimlash balansi - bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilganda. | | | | | | | | | | |
| *7-izoh:* | *Ushbu bo'lim tegishli kataklarni tanlash va belgilash yo'li bilan to'ldiriladi. Bunda arizaga belgilangan hujjatlar ilova qilinadi.* | | | | | | | | | | | |
| **X.** | **Boshqa ma'lumotlar** | | | | | | | | | | | |
| 10-1. | Ariza topshirilgan sana: | 10-1-1. | Kun: | | 10-1-2. | Oy: | | 10-1-3. | Yil: | | | |
| 10-2. | Ariza topshirilgan vaqt: | 10-2-1. | soat: | | 10-2-2. | daqiqa: | | | | | | |
| 10-3. | Ariza beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar: | | | | | | | | | | | |
| 10-3-1. | ❑ | Tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektining - yuridik shaxsning mulkdori (muassisi); | | | | | | | | | | |
| 10-3-2. | ❑ | ta'sis hujjatlariga muvofiq tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektining - yuridik shaxsning nomidan harakat qilishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxs. | | | | | | | | | | |
| 10-3-3. | Ariza beruvchining familiyasi: | | | | | | | | | | | |
| 10-3-4. | Ariza beruvchining ismi: | | | | | | | | | | | |
| 10-3-5. | Ariza beruvchi otasining ismi: | | | | | | | | | | | |
| 10-3-6. | Muassisning - ariza beruvchining STIRi: | | | | | | | | | | | |
| 10-3-7. | ❑ | 1. Quyidagilarni:<br>1.1. Taqdim etilgan ta'sis hujjatlari mazkur tashkiliy-huquqiy shakldagi (THSH) tadbirkorlik sub'ektining - yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini;<br>1.2. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlardagi (ariza, ta'sis hujjatlari va boshqa hujjatlardagi) mavjud ma'lumotlar haqiqiyligini;<br>1.3. Yuridik shaxsni tashkil etishda mazkur tashkiliy-huquqiy shakldagi (THSH) tadbirkorlik sub'ektini - yuridik shaxsni ta'sis etish tartibiga rioya etilganligini;<br>1.4. Qonunda belgilangan holatlarda tadbirkorlik sub'ektini - yuridik shaxsni tashkil etish masalalari tegishli davlat organlari va (yoki) mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilganligini tasdiqlayman.<br>2. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organga noaniq ma'lumotlar taqdim etilgan, yuridik shaxs soxta shaxslar orqali tashkil etilgan, yuridik shaxsni tashkil etish uchun moliyaviy operatsiyalar yoki pul vositalari yoxud boshqa mol-mulk bilan bog'liq bo'lgan bitta yoki bir nechta jinoyatlarni sodir etish maqsadida noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilgan shaxsiy ma'lumotlardan yuridik shaxsni tashkil etish uchun foydalanilgan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishim menga ma'lum. | | | | | | | | | | |
| 10-3-8. | Ariza beruvchining imzosi (elektron imzo - ariza elektron tarzda topshirilganda, o'z qo'li bilan quyilgan imzo - ariza o'zi kelib topshirilganda): | | | | | | | | | | | |

<table>
<tr><td>10-4.</td><td colspan="11">Ariza beruvchining vakili to’g’risidagi ma’lumotlar:</td></tr>
<tr><td>10-4-1.</td><td>Familiyasi:</td><td colspan="10"></td></tr>
<tr><td>10-4-2.</td><td>Ismi:</td><td colspan="10"></td></tr>
<tr><td>10-4-3.</td><td>Otasining ismi:</td><td colspan="10"></td></tr>
<tr><td>10-4-4.</td><td>Pasport seriyasi:</td><td></td><td>10-4-5.</td><td>Pasport raqami:</td><td colspan="7"></td></tr>
<tr><td>10-4-6.</td><td>Pasport berilgan sana:</td><td>10-4-6-1.</td><td>Kun:</td><td></td><td>10-4-6-2.</td><td>Oy:</td><td></td><td>10-4-6-3.</td><td>Yil:</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td>10-4-7.</td><td>Pasport kim tomonidan berilgan:</td><td colspan="10"></td></tr>
<tr><td>10-4-8.</td><td colspan="6">Soliq to’lovchining identifikatsiya raqami (STIR):</td><td colspan="5"></td></tr>
<tr><td>10-4-9.</td><td colspan="6">Vakil vakolatini tasdiqlovchi hujjat:</td><td colspan="5"></td></tr>
<tr><td>10-4-10.</td><td>Hujjat rekvizitlari:</td><td>10-4-10-1.</td><td>Kun:</td><td></td><td>10-4-10-2.</td><td>Oy:</td><td></td><td>10-4-10-3.</td><td>Yil:</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td>10-4-11.</td><td>❑</td><td colspan="10">1. Quyidagilarni:<br>1.1. Taqdim etilgan ta’sis hujjatlari mazkur tashkiliy-huquqiy shakldagi (THSH) tadbirkorlik sub’ektining - yuridik shaxsning ta’sis hujjatlariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini;<br>1.2. Davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlardagi (ariza, ta’sis hujjatlari va boshqa hujjatlardagi) mavjud ma’lumotlar haqiqiyligini;<br>1.3. Yuridik shaxsni tashkil etishda mazkur tashkiliy-huquqiy shakldagi (THSH) tadbirkorlik sub’ektini - yuridik shaxsni ta’sis etish tartibiga rioya etilganligini;<br>1.4. Qonunda belgilangan holatlarda tadbirkorlik sub’ektini - yuridik shaxsni tashkil etish masalalari tegishli davlat organlari va (yoki) mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilganligini;<br>1.5. Ariza beruvchi bo’lmagan shaxsning, ushbu arizada mavjud bo’lgan uning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga roziligi olinganligini tasdiqlayman.<br>2. Ro’yxatdan o’tkazuvchi organga noaniq ma’lumotlar taqdim etilgan, yuridik shaxs soxta shaxslar orqali tashkil etilgan, yuridik shaxsni tashkil etish uchun moliyaviy operatsiyalar yoki pul vositalari yoxud boshqa mol-mulk bilan bog’liq bo’lgan bitta yoki bir nechta jinoyatlarni sodir etish maqsadida noqonuniy yo’l bilan qo’lga kiritilgan shaxsiy ma’lumotlardan yuridik shaxsni tashkil etish uchun foydalanilgan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishim menga ma’lum.</td></tr>
<tr><td>10-4-12.</td><td colspan="6">Ariza beruvchi vakilining imzosi (elektron imzo - ariza elektron tarzda topshirilganda, o’z qo’li bilan quyilgan imzo - ariza o’zi kelib topshirilganda):</td><td colspan="5"></td></tr>
<tr><td>8-izoh:</td><td colspan="11">1) agar ariza qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ariza beruvchi tomonidan ariza topshirish vakolati berilgan boshqa shaxs tomonidan topshirilsa, 10-3-8-band o’rniga 10-4-band to’ldiriladi;<br>2) STIR mavjud bo’lmaganda 10-3-6-band to’ldirilmaydi.</td></tr>
<tr><td>XI.</td><td colspan="11">Xizmat bo’yicha qaydlar</td></tr>
<tr><td>11-1.</td><td>Ariza qabul qilingan sana:</td><td>11-1-1.</td><td>Kun:</td><td></td><td>11-1-2.</td><td>Oy:</td><td></td><td>11-1-3.</td><td>Yil:</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td>11-2.</td><td>Ariza qabul qilingan vaqt:</td><td>11-2-1.</td><td>soat:</td><td></td><td>11-2-2.</td><td>daqiqa:</td><td colspan="5"></td></tr>
</table>

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |
| 11-3. | Arizaning kirish raqami: | | | | | | |
| 11-4. | Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mas'ul xodimining F.I.O. va lavozimi: | | | | | | |
| | | | | | | | |
| 11-5. | Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimining imzosi (elektron imzo - ariza elektron tarzda topshirilganda, o'z qo'li bilan quyilgan imzo - ariza o'zi kelishi tartibida topshirilganida): | | | | | | |